

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF THE ANDIJAN REGION WATER MANAGEMENT ASSOCIATION (EXAMPLE 1991-1996)

Muminov Xusanboy Madaminjonovich

Department of History and Social science at Andizhan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor

Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon ugli

Andizhan State University,
History major 1st year master's student

Abstract. This article describes the history of organizations that worked in the field of irrigation in Andijan during the first years of Uzbekistan's independence, based on scientific sources and using historical research methods. These organizations were of great importance not only in Andijan, but also in Uzbekistan, and the sources cited in the article clearly demonstrate how true this idea is.

Keywords: irrigation, frame, unification, agrarian, canal, technology.

ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA)

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich

ADU, Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent.

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li

Andijon davlat universiteti,
Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti
E-mail: qodirjonovomadjon15@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-6196-0416>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning ilk mustaqillik yillarida Andijonda irrigatsiya sohasida faoliyat olib borgan tashkilotlarning tarixi ilmiy manbalarga tayangan holda tarixiy tadqiqot metodlari yordamida bayon etilgan. Ushbu tashkilotlar nafaqat Andijon balki O'zbekistonda katta ahamiyatga ega bo'lgan, bu fikrni naqadar to'g'ri ekanligini esa maqolada keltirilgan manbalar yaqqol ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: irrigatsiya, kadr, birlashma, agrar, kanal, texnika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N10>

Kirish. XXI asrda insoniyat oldida hal qilinishi zarur bo'lgan ko'plab global muammolar mavjud bo'lib, bular orasida suv tanqisligi muammosi ham dolzarb masala hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi fonida, bu masala keskin tus olmoqda. Butun dunyo miqyosida suv taqchilligi omillarining kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish bo'yicha davlatlar va xalqaro tashkilotlar doirasida global hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lsada, biroq masalaning muqobil yechimlariga erishish borasidagi chora-tadbirlar talab darajasida emas. Bunda ko'plab

davlatlar o'rtasida xalqaro standartlarga asoslangan suvdan foydalanishning umumiy qoidalarini ishlab chiqilmaganligi ham masalaning jiddiy tus olishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda ham suv tanqisligi masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'kidlash lozimki, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikada sovet davridan qolgan qishloq xo'jaligi va uning irrigatsiya-melioratsiya tizimi hamda sohada yo'lga qo'yilgan xatolar sababli yuzaga kelgan ekologik oqibatlarni bartaraf etish bo'yicha bir qator ishlar olib borildi. Viloyatlar kesimida, jumladan, Andijon viloyatida ham irrigatsiya va melioratsiyaning holatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash borada zaruriy chora-tadbirlar ko'rildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga qarashli bo'lgan Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxividagi Andijon viloyati suv xo'jaligi ishlab chiqarish birlashmasi [3. 1-5-b.][4. 1-5-b.], Andijon viloyati suv xo'jaligi birlashmasi [5. 1-5-b.] va Andijon viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasining hisobotlariga [7] murojaat qilindi. Bundan tashqari mavzuni atroflicha yoritishda bir qator adabiyotlardan foydalanildi [1][8] va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, xususan, PF-1617-sonli Prezident Farmoni normativ-huquqiy hujjat sifatida qo'llanildi [6].

Muammoni yoritishda tarixiylik, xronologik, tarixiy tizimlilik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Maqola tarixiy xolislik tamoyillari asosida yozildi.

Muhokama. Suv bilan bog'liq muammoni hal qilishda irrigatsiya sohasi muhim o'rinni egallaydi. Zero irrigatsiya aynan suvni boshqaruvchi soha bo'lib, unga xalqaro miqyosda quyidagicha ta'rif beriladi: "yerni sun'iy usullar bilan sug'orish. U uzoq vaqtda, oz yoki umuman yomg'ir yog'maydigan hududlarda, o'suvchi o'simliklarni suv bilan ta'minlaydi. Irrigatsiyada foydalaniladigan suv ko'l, daryo, ariq va boshqa manbalardan olinadi..." [1. 456-b.]. Ushbu soha suvni asosiy sarf qiluvchi tarmoq, ya'ni qishloq xo'jaligiga yetkazib beruvchi hisoblanadi. Biroq sovetlar davrida irrigatsiya tizimi bir tomonlama ekstensiv ravishda rivojlantirishi natijasida katta hajmdagi suv qishloq xo'jaligi maydonlariga asosan an'anaviy "jo'yakli" sug'orish usuli orqali yetib bormasdanoq yer ostiga singish va bug'lanish natijasida behuda isrof bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilni qo'lga kiritgach sovet davridan qolgan irrigatsiya sohasiga doir muammolarni ham hal qilishi zarur edi. Shu jumladan, O'zbekistonning iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Andijon viloyatida ham sohaga doir ko'plab ishlarni amalga oshirish lozim edi. Boshqa viloyatlar kabi Andijon ham paxtachilik sohasiga ixtisoslashtirilgan va irrigatsiya tizimi ekstensiv ravishda rivojlantirilgan edi. Bu esa viloyatning iqtisodiy kelajagiga suv taqchilligi muammosi xavfini olib keldi. Shu sababli ham sohani modernizatsiya qilish uchun muhim bo'lgan bir qator zaruriy tadbirlarni istiqlol yillarining boshidanoq amalga oshirishga kirishildi.

Natijalar. Andijon viloyati suv xo'jaligi ishlab chiqarish birlashmasi oldida bir qator muhim tadbirlar turar edi. Mazkur birlashma O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979-yil 3-avgustdagi 771-sonli qarori hamda 1980-yil 27-avgustdagi 600-sonli qarori bilan "Andijon oblast sug'orish sistemalari boshqarmasi"ning (1955-yilning iyun oyida tashkil etilgan) zaminida shu nom bilan tuzilgan [2. 5-v]. 1991-yilda ushbu birlashma tarkibiga 22 ta tashkilot kirgan edi.

1991-yilda 8-oktyabrda birlashma tarkibidagi tashkilotlarni moddiy texnikaviy manbalarga hamda aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida

“Andijanremzod” («Андижанремзод», 1983-yilda tashkil topgan) ishlab chiqarish birlashmasi qoshida “Ирригатор” tijorat vositachilik markazi tuzildi [3. 1-b.]. Bu orqali birlashmaning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari oshirildi.

1992-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, shtat jadvallari bo‘yicha 4075 kishi belgilangan bo‘lib, ishda band xodimlar soni 3980 kishidan iborat edi. Tashkilotda oliy ma‘lumotli xodimlar soni 467 tani tashkil qildi [3. 4-b.]. Bu shuni ko‘rsatadiki, birlashmadagi kadrlarning bor yo‘g‘i 11 foizigina oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan. Kadrlar masalasidagi yana bir muammo shunda ediki, 1991-yil davomida 406 nafar xodim ishdan ketgan va 392 nafar xodim ishga qabul qilingan [3. 5-b.]. Boshqacharoq qilib aytadigan bo‘lsak, bir yilning o‘zida kadrlar tarkibining deyarli 1/10 qismi yangilanganligini ko‘rsatadi. Bu holat kadrlar tarkibida oliy ma‘lumotli kadrlar sonining kam bo‘lganligi hamda bir yil ichida ko‘plab ishchilarning oylik ish haqqini kamligi va boshqa sabablarga ko‘ra ishdan ketishi, yangi ishchilarning esa ishga moslashishi va malakali kadrlarga aylanishi uchun ancha vaqt talab etishi jarayoni bilan bog‘liq edi.

1993-yil 1-yanvar holatiga esa kadrlar soni 3952 kishi va undan 450 nafari oliy ma‘lumotli bo‘lgan [4. 4-b.]. Bu esa o‘tgan yilning shu davrga nisbatan 123 nafarga kam xodim bo‘lganligini ko‘rsatadi. Kadrlar masalasidagi vaziyat oldingi yilga qaraganda og‘irroq bo‘ldi. Chunki, 628 kishi ishdan ketib, 620 kishi ishga qabul qilingan. Natijada shtat birligi bo‘yicha xodim yetishmovchiligi 45 taga yetdi [4. 4-5-b.]. Bu holat esa shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning 15 foizi ishdan ketgan va bo‘sh ish o‘rinlarini kadrlar bilan to‘ldirish uchun ishga qabul qilingan xodimlar soni ishdan ketganlarga qaraganda 8 taga kam edi. Kadrlar masalasidagi muammolarga qaramay birlashma o‘z faoliyatini jadallik bilan kengaytirib bordi. Zero, Andijon viloyatida irrigatsiya tizimi va uning asosiy qismi bo‘lgan kanallar hamda ulardagi suvni nazorat qilish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Andijon viloyati suv xo‘jaligi ishlab chiqarish birlashmasida kadrlar yetishmovchiligini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ham yo‘llanma asosida kadrlar yuborilib, ishga qabul qilingan. 1992-yil 14-mayda vazirlikning 194-sonli buyrug‘i va “Andijanremzod”ning 1992-yil 22-maydagi 57-sonli buyrug‘iga ko‘ra Buloqboshi RSXIB rayon suv xo‘jaligi ishlab chiqarish birlashmasi (RSXIB) tashkil etildi. Bundan tashqari Aravansoy, Shaxrixonsoy, Rayish kanallarining ekspluatatsiya qilinishini yaxshilash maqsadida 1992-yil O‘rta Shahrison rayonlararo kanallar boshqarmasi tashkil etildi. Shu yili Andijon viloyati suv xo‘jaligi ishlab chiqarish birlashmasi tarkibidagi tashkilotlar soni 23 taga yetkazildi [4. 1-b.].

1993-yil 5-mayda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligining hay‘at kengashi 9/3-sonli qarori bilan Andijon viloyati suv xo‘jaligi birlashmasi tashkil etildi. Ushbu qaror 1993-yil 20-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligining 274-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi. Viloyat suv xo‘jaligi birlashmasining vazifasi irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini qayta qurish, ularning texnikaviy holatini yaxshilash va ekspluatatsiyasini takomillashtirish, suvdan rejali foydalanish va qishloq xo‘jaligi ekinlaridan barqaror yaxshi hosil olishni ta‘minlashdan iborat edi. Bu davrga kelib birlashma 24 ta tashkilotdan iborat bo‘ldi [5. 1-b.].

1996-yil 1-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-1617-sonli Farmoniga ko‘ra, bozor munosabatlari sharoitida qishloq va suv xo‘jaligini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish, tuproq unumdorligini, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini yaxshilash va qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirish masalalarida

ularning mustahkam o'zaro aloqasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi hamda Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi [6].

Ushbu vazirlik zimmasiga quyidagi bir qator muhim vazifalar yuklatildi: sug'oriladigan yerlar unumdorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan yagona strategik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; respublika suv xo'jaligi tashkilotlarining, loyiha-qidiruv, ilmiy, gidrogeologiya-meliorativ, tuproq-yer tuzilishi hamda ta'mirlash-qurilish muassasalari va korxonalari imkoniyatlaridan har tomonlama oqilona foydalanish; mamlakatimizdagi ilg'or tajriba va jahondagi eng yaxshi yutuqlarni uyg'unlashtirib, qishloq va suv xo'jaligida yagona ilmiy-texnikaviy va texnologik siyosatni yuritish; qishloq va suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish maqsadida ularning manfaatlarini birlashtirish; agrar sektorda bozor munosabatlarini rivojlantirish, fermerlik harakati va xususiy tashabbuskorlikni butun choralar bilan qo'llab-quvvatlash, respublika hududida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulgurji va mayda ulgurji bozorlarini tashkil etish; qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibini oqilona tashkil etish, almashlab ekish va ekinlarni navbat bilan ekishning maqbul sxemalarini joriy etish, bozor talablariga qarab ekin maydonlari tarkibi va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini boshqarish; agrosanoat majmui holatini tahlil etish va uni rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va xomashyo yetishtirish hamda ular harakatda bo'ladigan aniq maqsadni ko'zlovchi dastur va balanslarini tuzish; qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligini, chorvachilikda naslchilik ishini va veterinariya xizmatini tashkil etish, urug'lik sifatini, pestitsid va o'g'itlarning qo'llanilishi, tuproq eroziyasining oldini olish, o'simliklar va hayvonlar kasalliklari tarqalishini nazorat qilish. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini har tomonlama mexanizatsiyalash, yangi turdagi texnika, mashina va mexanizmlarni joriy etish asosida uni intensivlashni ta'minlash; yer, suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining barcha toifalarida yer va suvdan samarali foydalanishni davlat yo'li bilan hisobga olish va nazorat qilishni amalga oshirish; qadimdan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangilash, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orishning ilg'or usullarini joriy etish choralarini ishlab chiqish; ekologiya muammolari va Orol dengizi havzasi muammolarini hisobga olib, barcha suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilar manfaatlarini ko'zlagan holda suv resurslarini boshqarish; katta kanallar, yirik suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi inshootlari va tizimlarini davlat yo'li bilan boshqarish; oliy va o'rta maxsus ta'limni tashkil etish, fermerlarni o'qitish, xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, agrosanoat majmui sohasida davlat kadrlar siyosatini o'tkazish.

1996-yilda ushbu farmonga ko'ra Andijon qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi tashkil etilgan. Boshqarmaga qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturida ishlarni amalga oshirib borish bilan bir qatorda viloyatda irrigatsiya va melioratsiya sohasini rivojlantirish vazifasi ham yuklatilgan [7. 1-b.].

Xulosa. Xulosa qilib shuni yozish kerakki! Mustaqillikning ilk yillaridayoq irrigatsiya va melioratsiya sohasiga jiddiy e'tibor berilgan va kadrlar masalasidagi muammolarga qaramay, muhim, zaruriy ishlar amalga oshirilgan va keyingi yillarda erishilgan iqtisodiy o'sish va ijtimoiy sohadagi qo'llovlar natijasida kadrlar bilan bog'liq muammo biroz yengillashgan. Vazirlar Mahkamasi tomonidan muammo dolzarb ekanligi hisobga olinib bir qator kadrlar

tavsiya etilgan va ular ishga qabul qilingan. Irrigatsiya va melioratsiya sohasi Andijon viloyatida faol ravishda modernizatsiya qilib borilgan. Bu orqali esa aholi tomorqalari va qishloq xo'jaligi yerlarini muttasil suv bilan ta'minlashga erishilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Irrigation // The World Book Encyclopedia. Volume 10. –United States of America: a Scott Fetzer company, 1994.
2. Andijon viloyat davlat arxivi, 57-fond, ilmiy ma'lumotnoma apparati.
3. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxivi. Andijon viloyati suv xo'jaligi ishlab chiqarish birlashmasining 1991-yilda bajarilgan ishlar hisoboti. – Andijon, 1992.
4. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxivi. Andijon viloyati suv xo'jaligi ishlab chiqarish birlashmasining 1992-yilda bajarilgan ishlar hisoboti. – Andijon, 1993.
5. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxivi. Andijon viloyati suv xo'jaligi birlashmasining 1993-yilda bajarilgan ishlar hisoboti. – Andijon, 1994.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1996-yil 1-noyabrdagi PF-1617-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/-177861>
7. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi joriy arxivi. Andijon viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasining 1997-yilda bajarilgan ishlar hisoboti. – Andijon, 1998.
8. Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdinov R., Mo'minov H. – Toshkent: Ochin, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).